

DOSTON KUY-NOMALARINI O'RGATISHNING AMALIY ASOSLARI



Mardonbek Yusupbayev

Yunus Rajabiy nomidagi

O'zbek milliy musiqa san'ati

instituti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20541758>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Xorazm dostonchilik maktabida qo'llaniladigan doston kuy-nomalarini o'rgatishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Xorazm baxshichilik an'anasining o'ziga xos ijroviy xususiyatlari, doston nomalarining musiqiy-estetik tabiati hamda ularning baxshi ijrochiligidagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, "Noma boshi", "Nolish", "Qirq ming ilg'or", "Shirvoniy" turkumlari va boshqa nomalarni talabalarga o'rgatishda qo'llaniladigan ustoz-shogird an'anasi, takror va taqlid, musiqiy tahlil, ijodiy erkinlik kabi pedagogik metodlarning ahamiyati ochib berilgan. Maqolada talabalar ijro mahoratini shakllantirish, ritm va ohangni his qilish hamda sahna madaniyatini shakllantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijasida Xorazm dostonchilik maktabidagi doston nomalarini o'rgatish milliy baxshichilik san'atining an'anaviy ijro usullarini saqlash va yosh avlodga etkazishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Xorazm dostonchilik maktabi, baxshichilik san'ati, doston nomalari, Ustoz-shogird an'anasi, ijro mahorati.*

***Annotation.** This article discusses the theoretical and practical foundations of teaching epic melodic modes (doston kuy-nomalari) used in the Khorezm epic performance school. The study analyzes the distinctive performance features of the Khorezm baxshi tradition, the musical and aesthetic nature of epic melodies, and their role in baxshi performance practice. Furthermore, the article reveals the importance of pedagogical methods such as the master-apprentice tradition, repetition and imitation, musical analysis, and creative freedom in teaching melodies including "Noma Boshi," "Nolish," "Qirq Ming Ilg'or," and the "Shirvoniy" series to students. Special attention is also given to developing students' performance skills, their sense of rhythm and melody, as well as stage culture. The research substantiates that teaching epic melodies in the Khorezm epic performance school is an important factor in preserving the traditional performance methods of Uzbek baxshichilik art and transmitting them to future generations.*

***Keywords:** Khorezm epic performance school, baxshi art, epic melodies, master-apprentice tradition, performance skills*

O'zbek xalq og'zaki ijodi tizimida baxshichilik san'ati alohida o'rin egallaydi. Ushbu san'at turi xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlarini, estetik tafakkuri hamda musiqiy merosini o'zida mujassamlashtirgan murakkab sinkretik hodisa hisoblanadi. Baxshichilikda badiiy matn, kuy, ijro uslubi, aktyorlik mahorati va tinglovchi bilan jonli muloqot bir butun tizim sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek baxshichilik an'analari tarkibida Xorazm dostonchilik maktabi o'zining

boy repertuari, murakkab kuy tizimi, ijro usullari va musiqiy-estetik xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi.

Xorazm dostonchilik maktabning o'ziga xosligi dostonlarning maxsus kuy yo'llari - nomalari asosida ijro etilishida namoyon bo'ladi. Xorazm baxshilari uchun noma nafaqat oddiy kuy, balki dostonning ruhiy holati, dramatik mazmuni va badiiy-estetik mohiyatini ifodalovchi asosiy ijroviy vosita hisoblanadi.

Xorazm dostonchilik maktabida qo'llaniladigan doston nomalari o'zining kuy tuzilishi, ritmik harakati, emotsional ta'sir kuchi va ijroviy xarakteriga ko'ra murakkab tizimni tashkil etadi. Ushbu nomalar tarkibiga "Boboxonim", "Galalaylim", "Gulandom", "Zorinji", "Mungli Zorinji", "Ilg'or I", "Ilg'or II", "Qirq ming ilg'or", "Ilg'or sarpardasi", "Muhammasi iftor", "Muhammasi doston", "Muhammasi baxshi I", "Muhammasi baxshi II", "Nolish III", "Taka nolish", "Noma boshi", "Naylarman I", "Naylarman II", "Oromijon", "Rahmayla", "Sargardon", "Sho ko'chdi", "Shirvoniy I-IV", "Eshvoy", "Eshvoyi kurd", "Eshvoyi Urganjiy", "Qora dali" va "Eroniy" kabi kuy yo'llari kiradi [2.]. Har bir noma muayyan dramatik vaziyat, ruhiy holat yoki poetik mazmunga mos ravishda ijro etiladi.

Xorazm baxshilarining ijrochilik amaliyotida doston boshlash jarayoni ham alohida ahamiyatga ega. Baxshilar dostonni bevosita asosiy voqealar bayoni bilan emas, balki maxsus kirish nomalari orqali boshlaydilar. Jumladan, "Muhammasi iftor", "Muhammasi doston" yoki "Noma boshi" kabi kuylar tinglovchini ruhiy jihatdan tayyorlash, davra muhitini shakllantirish va ijroga ma'naviy-falsafiy ruh bag'ishlash vazifasini bajaradi. Shundan so'ng Maxtumqulining axloqiy-falsafiy she'rlari yoki Matniyoz Go'rjaning g'azallari asosidagi qo'shiqlar ijro qilinadi va keyin asosiy doston aytishga o'tiladi. [2.30.] Bu an'ana Xorazm baxshichilik maktabining o'ziga xos estetik va ma'naviy tamoyillarini namoyon etadi.

Professor B.Matyoqubov Xorazm doston kuy-nomalari ustida uzoq yillar o'z izlanishlarini olib borib quydagilarni qayd etadi. "Xorazm doston nomalari o'zining tugal shakli, ochiq ovozda kuylanishi, xalq qo'shiqlariga yaqinligi, doston voqeligiga bog'liqligi, xullas, o'ziga xos yorqin uslubi bilan ajralib turadi. Shuningdek, uning zaminida o'zbek, ozarbayjon, turkman, qoraqalpoq, qisman qozoq xalqlarining ijodiy aloqalari ham o'z aksini topgan. Madaniyatlarning bunday kesishuvi soz san'atining boshqa turlariga qaraganda doston kuylarida izchilroq namoyon bo'lishi diqqatga sazovor. Bu yerda baxshilarning ko'pchiligi turkman va qoraqalpoq doston kuylarining parda tuzilishi, ohangi, qochirim va zarblarini mohirona bajargani holda o'z san'atini qo'shni xalqlarga manzur qila olganlar" [3.107.].

Xorazm dostonchilik maktabida nomalarni o'rgatish jarayoni murakkab amaliy asosga ega bo'lib, bunda har bir noma o'zining musiqiy harakati, ritmik tuzilishi, diapazoni, ijro usuli hamda emotsional ifoda vositalari bilan bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Shu jihatdan, doston nomalarini o'rgatishda nafaqat ularning musiqiy xususiyatlarini, balki Xorazm dostonchiligida qo'llaniladigan cholg'u sozlarining o'ziga xos tomonlari va ijro jarayonidagi ahamiyatini ham izchil tushuntirish muhim hisoblanadi.

Ayniqsa, mazkur dostonchilik maktabiga xos cholg'u sozlarining ijroga kirib kelish tarixi, ularning shakllanish bosqichlari hamda baxshilik an'anasi bilan uzviy bog'liqligini o'rganish talabalar uchun muhim ilmiy va amaliy manba vazifasini bajaradi. Jumladan, tor cholg'usining Xorazm baxshilari ijrosiga kirib kelishi va uning doston ijrochiligidagi o'rni haqida ma'lumot berish talabalarda nafaqat tarixiy tasavvurni shakllantiradi, balki ijro an'alarining rivojlanish jarayonini chuqurroq anglashga ham xizmat qiladi. "Muhammad Rahimxon soniy – Feruz davrida Xivaga Ozarbayjondan sozandalar kelishadi va xon oldida kuylar chalib, qo'shiqlar aytib o'z mahoratlarini namoyish qiladilar. Shunda Feruz tor cholg'usining jarangdorligini, mug'omlar

talqinidagi xush sadoligi, barmoqlar harakati (texnik imkoniyatlar) va zarblariga mahliyo bo‘lib, mohir go‘yanda va musiqa cholg‘ulari ustasi Qalandar Do‘nmasga murojaat qilib: “Sen tor asbobini yasay olasinmu?”, – deydi. Agar andozasini olsam, yasayman hazrat, deb javob beradi. U torni andozasini olib, bir necha kun ichida tut yog‘ochidan tor yasab xonga ko‘rsatadi. Lekin xon torni saroy maqomchilari qo‘shida chalishga ruxsat bermaydi. Keyinchalik u tor Qalandar Do‘nmasning shogirdi va qarindoshi Otajon Devon Abdullayev qo‘liga o‘tadi. Inqilobdan keyin taxminan 1929-yillari Sheroziy ham shu torda chalib yurgan. 1933-yili Bola baxshi o‘sha tordan andoza olib, o‘zi chapaqay bo‘lgani uchun chapaqayiga moslab boshqa tor yasaydi va u bilan o‘zi boshliq Xiva xalq teatri musiqachilar ansamblini boshqaradi. To‘y va sahnalarda ham tor jo‘rligida dostonlar ijro qiladi. Bola baxshini tor cholg‘usini dutor zarblari (shtrixlari) bilan ijro qilishi hamda shirvoniy uslubga torning mos tushishi sabablari bilan bo‘lsa kerak, bu cholg‘u xorazmlik baxshilarning, keyinchalik butun sozandalarning sevimli jo‘rnavor cholg‘usi sifatida tan olinadi va butun O‘zbekistonga tarqaladi. Ammo yuqoridagi ma‘lumotlar bilan birga tor shaklidagi qosh kosali cholg‘ular Ayritomdan topilgan, eramizning I asrlariga oid madaniy yodgorliklarda o‘z aksini topganligi, Sultonmuhammad Olovuddin Xorazmshoh (1200-1220) saroyida tor va rubobning mohir ijrochisi Ustod Mahmudning bo‘lganligi, qolaversa, Temuriylar va Shayboniylar davrida yaratilgan miniatyuralardan tor shaklidagi qo‘sh kosali cholg‘ularning aks ettirilganligi uzoq o‘tmishda bu asbobning Movarounnahr va Xorazmda ham qo‘llanilganligidan dalolat beradi” [3.101-102.].

O‘quv jarayonida amaliy ijro mashg‘ulotlari, tinglash va tahlil qilish metodlari, ustoz-shogird an‘anasi hamda individual ijro ustida ishlash usullari uyg‘un holda olib borilishi lozim.

Doston nomalarini o‘rgatishda eng muhim metodlardan biri ustoz-shogird an‘anasi hisoblanadi. Ushbu pedagogik tizim baxshichilik san‘atining asrlar davomida saqlanib qolishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Ustoz baxshi nomalarni jonli ijro orqali namoyish etadi, talaba esa tinglash, kuzatish va takrorlash asosida ularni o‘zlashtiradi. Masalan, nomalarni o‘rgatishda avvalo kuyning asosiy ohang yo‘li, ritmik harakati va ijro xarakteri tushuntiriladi. Keyingi bosqichda talaba ushbu kuyni ustoz ortidan takrorlaydi va asta-sekin mustaqil ijro qilish darajasiga olib chiqiladi.

Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida “takror va taqlid” usuli muhim o‘rin egallaydi. Talaba “Qirq ming ilg‘or” yoki “Ilg‘or sarpardasi” kabi murakkab nomalarni bir necha marotaba tinglab, ularning melodik harakatini eslab qolishga harakat qiladi. Bu usul orqali musiqiy eshituv qobiliyati, ritmni his qilish, soz imkoniyatlaridan foydalanish ko‘nikmalari shakllanadi.

Xorazm dostonchilik maktabida cholg‘u jo‘rligini o‘rganish ham alohida ahamiyatga ega. Baxshilar asosan dutor va tor jo‘rligida ijro qiladilar. Ayrim hollarda garmon, bulomon yoki doira ham qo‘llaniladi. Shu sababli talabalar nomalarni o‘rganish bilan bir qatorda cholg‘u jo‘rligiga moslashish, ritmni ushlab turish va ansambl uyg‘unligini saqlash ko‘nikmalarini ham egallashlari lozim bo‘ladi.

Pedagogik jarayonda “ijodiy erkinlik” usuli ham keng qo‘llaniladi. Talabaga mavjud an‘anaviy qolipdan chiqmagan holda ayrim ohang bezaklari, pauzalar va emotsional urg‘ularni mustaqil talqin qilish imkoniyati beriladi. Bu esa uning individual ijro uslubini shakllantiradi.

Shuningdek, “davra usuli” orqali talabalar jamoaviy ijroga jalb qilinadi. Bunda ular bir-birining ijrosini tinglaydilar, tahlil qiladilar va o‘zaro tajriba almashadilar. Mazkur metod sahna madaniyati, tinglovchi bilan muloqot qilish, jamoa bilan ishlash va ijro jarayonida ruhiy erkinlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalar ijrosini baholash jarayonida kuy aniqligi, ritmga rioya qilish, matn talaffuzi, ovoz imkoniyatlari, emotsional ifoda, sahna madaniyati va tinglovchi bilan muloqot mezonlari asos

qilib olinadi. Har bir ijrodan so‘ng ustoz tomonidan batafsil tahlil qilinib, mavjud kamchiliklar va erishilgan yutuqlar ko‘rsatib beriladi. Bu esa talabaning ijro mahoratini muntazam ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm dostonchilik maktabida doston nomalarini o‘rgatish murakkab ilmiy, pedagogik va amaliy jarayon hisoblanadi. “Muhammasi doston”, “Qirq ming ilg‘or”, “Shirvoniy” turkumlari va boshqa nomalarni mukammal o‘zlashtirish orqali talaba baxshichilik san‘atining musiqiy-estetik mohiyatini chuqur anglaydi. Ustoz-shogird an‘anasi, ilmiy tahlil, amaliy mashg‘ulotlar va ijodiy yondashuv uyg‘unligi natijasida talaba nafaqat baxshi ijrochilik texnikasini, balki milliy musiqiy tafakkur va an‘anaviy ijro madaniyatini ham mukammal egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Рўзимбаев С. Хоразм дostonлари. Т., “ФАН” 1985.
2. Матякубов Б. Дoston наволари Т.: 2009.
3. Matyakubov B. Dostonlarning musiqiy xususiyatlarini o‘rganish. O‘quv qo‘llanma. I-kitob. Т.: 2024
4. AXMEDOVA, O. O ‘ZBEK MAROSIM-UDUMLARINING ETNOHUDUDIY XUSUSIYATLARI.
5. Ахмедова, О. М. (2010). Освещение фольклорных религиозных мотивов в средствах массовой информации (на примере печати и радиовещания Узбекистана). *Филологические науки. Вопросы теории и практики*, (3), 35-38.
5. Avazova, M. E., & Axmedova, O. M. (2021). TOSHKENT VILOYAT OHANGARON TUMANI YOR YOR QO‘SHIQLARINING O‘ZIGA XOS POETIKASI. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 196-201.
6. Akhmedova, A. (2021). Historical syncretism of folklore and media. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 335-340.
7. Ахмедова, О. (2026). Соотношение традиции и импровизации в узбекском народном эпосе: Interplay of Tradition and Improvisation in Uzbek Folk Epic. *Journal of national culture*, 2(1), 150-156.
8. Qodirov, M. R., & qizi Aliasqarova, S. R. (2025). THE IMPORTANCE OF SPEECH IN BAKHSHI. *Bulletin news in New Science Society*, 2(6), 11-15.
9. Абдурахмонов, Р. Ю., & Курбанова, У. (2020). Хоразм фольклор ижрочилик санъати. *Oriental Art and Culture*, (II), 31-35.
10. Ахмедова, О. М. (2019). ЗНАНИЯ, ОБЫЧАИ И ОБРЯДЫ О ПРИРОДЕ И ВСЕЛЕННОЙ. *Наука и мир*, 2(4), 28-31.
11. Normurodovich, S. B. (2024). XORAZM DOSTON IJROCHILIGIDA NAG ‘MALARNING AHAMIYATI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(10), 133-136.
12. Safarov, B. N. (2023). DOSTON IJROCHILIGIDA SOZ VA SO ‘Z UYG ‘UNLIGI. *Oriental Art and Culture*, 4(1), 84-89.
13. Safarov, B. N. (2024). JANUBIY O ‘ZBEKISTON DOSTON IJROCHILIGIDA NAG ‘MALARNING O ‘RNI VA AHAMIYATI. *Inter education & global study*, (10), 529-535.
14. Normurodovich, S. B. (2024). JUFT TORLI CHOLG ‘U SOZLARIDAGI O ‘NG QO ‘L ZARBLARINING O ‘ZARO BOG ‘LIQLIGI VA FARQLI JIHATLARI. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 2(6), 75-79.

15. Safarov, B. (2022). Do ‘mbira sozining tuzilishi, imkoniyatlari va doston ijrochiligida tutgan o‘rni. *Oriental Art and Culture*, 3(2), 793-798.

16. Mavlonbekova, N., & Abduraxmonov, R. (2022). TURKMAN BAXSHISI “SEVGI VA ISHQ MULKINING SHOHI” MULLANAFASNING “ZUXRA VA TOXIR” DOSTONI TAHLILI. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 408-412.